

**TUYA LMGI ASOSIDA SHAKLLANGAN MAQOLLARNING LINGVOKOGNITIV  
TADQIQI (“YIGITNI – OR O’LDIRAR, TUYANI – SARBON” MAQOLI ASOSIDA)**

**Jumayeva Marjona Erkinovna**

*Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi.jumayevamarjona@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Maqolada "tuya" zoonimi qatnashgan "Yigitni – or o'ldirar, tuyani – sarbon" maqoli tahlilga tortilgan. Mazkur maqol qatnashgan ilmiy manbalar qiyoslanib variantlar o'zaro solishtirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *zoonim, lingvokognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, madaniy kod, o'rganish obyekti, madaniyat elementlari, paremiologiya, lingvokulturrema.*

**Аннотация:** *В статье анализируется пословица «Молодой человек убивает молодого человека, верблюд — сарбон», в которой фигурирует мой «верблюжий» зоон. Сопоставляются научные источники, задействованные в этой пословице, и сопоставляются варианты.*

**Ключевые слова:** *зооним, лингвокультурология, культурный фонд, объект изучения, элементы культуры, паремиология, лингвокультурема.*

Maqollarda xalq tafakkuri va madaniyati birlashadi, millatning mental xususiyatlari, asriy an'ana va turmush tarzida mavjud qadriyatlar o'zini namoyon etadi. Lingvokulturologiya – ana shu mentallikni madaniy kodlar asosida o'rganadi va tilda tadbiq etadi.

Narsa va hodisalarni nomlash masalasi nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, madaniyatshunoslik, falsafa, sotsiopsixologiya, akseologiya kabi fanlarning ham tahlil obyekti bo'lib xizmat qiladi [7]. Qadimdan Arastu, Geraklit, Demokrit, Platon, Augustin kabi olimlar nomlash masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Yunon faylasuflari Kratil va Germogen mazkur masala bo'yicha ismlarning haqiqatini, ya'ni hech qanday nom avvaldan tayyor bo'lmasligi, u tabiat va jamiyatning o'zaro kelishuvi natijasida hosil bo'lishini ta'kidlaydilar.

Zoonimlarni nomlash masalasi ham leksik-semantik jihatdan anchadan beri tilshunoslarning tahlil obyektlaridan biridir. XX asrning dastlabki tadqiqotlarida hayvon nomlari tirik mavjudotlar, animalizmlar, zoosemizmlar, zoomorfezimlar hamda zoonimlar kabi nomlar bilan atalgan[8].

XX asr so'ngida yirik kognitiv tadqiqotchi Y.L.Lasota zoosemizmlar atamasining nisatan to'g'riroq ekanligini, ingliz xalqi tafakkur tarzi, bilim bazasi har qanday nomning nominatsiyasini belgilay olishini ta'kidlaydi[9]. Hayvon nomlarining nominatsiyasini quyidagi hodisalar belgilay olishi mumkinligi olim tomonidan aytib o'tilgan.

Al - Bder Adnan Xabib Laftaning “Hayvon nomlari qatnashgan rus maqollarining lingvokulturologik tadqiqi” nomli ishida hayvon nomlari qatnashgan rus maqollari

mavzuviy guruhlarga bo'lingan hamda ham lingvomadaniy, ham lingvokognitiv jihatdan tadqiq qilingan. Tuya zoonimi qatnashgan maqollar bir necha tematik guruhlar tarkibida tahlilga tortilgan .

“Tuya” zoonimi qatnashgan “Yigitni – or o'ldirar, tuyani – sarbon” maqolida ham xalq tafakkuri va ma'naviyati aks etgan. Xalq donishmandligi va kundalik turmushdagi zukkoligi mazkur maqol vositasida ko'zga tashlanadi. Inson hayotida or – nomusning barcha narsadan ustunligi ta'kidlanadi.

Yigitni – or o'ldirar,

Tuyani – sarbon.

Mazkur maqol “Yigitni or o'ldirar, tuyani – sarvar” variantiga ham ega. Sarvar – istilohiy ma'noda yo'lboshchi, boshliq ma'nosida kelsa, “Ma'nolar maxzani” nomli maqollar to'plamida og'ir yuk ma'nosida qo'llangan [1]. Ijtimoiy hayotga nazar solsak, haqiqatdan ham, tuyaning bor inom-ixtiyori boshlig'ining qo'lida. “Zarbulmasal” asaridagi “tuya va bo'taloq” hikoyasi mazkur maqolning matn qurshovidagi isbotidir. Ammo ikkinchi jihat ham borki, tarixda tuya jonivori ulov vositasi sifatida eng maqbul sanalib, ham uzoq masofa uchun, ham qumlik sahrolarda eng talabgir va chidamli hayvon sifatida qadrlangan. Shu bois tuya boshqa hayvonlardan farqli ravishda o'z egasiga ko'proq ast qotgan. Qurbonlik uchun esa kamdan-kam holatlarda tanlangan.

Tuya o'rkachlari bilan boshqa jonivorlardan farq qiladi. O'rkachining balandligi tuyaning parvarishiga bog'liq. Haddan ortiq ko'p yuk ortilgan, charchagan va suvsizlikda ko'p saqlangan tuya o'z tana vaznini 40 % i gacha yo'qotadi. Hattoki, o'rkachlari ko'rinmaydigan holatga ham kelishi mumkin [3]. Ijtimoiy hayotdagi tuyaning bu xususiyatidan kelib chiqilsa, haqiqatan ham, me'yoridan ortiq ortilgan og'ir yuk uni halok etishi mumkin.

Maqolda er yigit va tuya parallel ravishda qo'llanmoqda. Tuyaning halol ekanligi, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) hattoki tuya ustida ibodat qilib ketganliklari haqida ma'lumotlar mavjud [1]. Qolaversa, hayvonlar ichida qurbonlik uchun beriladigan eng katta hadya ham tuya hisoblanadi. Shuning uchun ham er yigit – mard, nomusli yigit qiymati tuya bilan o'lchanmoqda. Mazkur maqolda yana bir asosiy jihat tuya va er yigitni halok etuvchi omillardir. O'zbek xalqi madaniyatida haqiqiy erkakning bilak kuchi bilan birga uning or-nomusi, g'ururi ham qadrlanadi. Uning jamiyatdagi obro'- e'tibori shu bilan o'lchanadi. Er yigitning or-nomusiga tekkan kichkina dog' ham uning bo'ynini egib, gardaniga og'ir yuk soladi. Bu yuk esa – o'limdan ham qattiq.

Maqolda sarbon leksemasidan ko'ra og'ir yuk ma'nosida kelgan sarvar so'zi ko'proq mos keladi. Tuyani og'ir yuk halok etsa, mard insonni or-nomus yuki azoblab hayotidan ayiradi. Xalq tilida mavjud quyidagi sinonim maqollarda erkak kishining hayotida or-nomusning o'rni zikr qilingan. “Shovla ketsa ketsin, obro' ketmasin”, “Tog' boshida qor bo'lar, er kishida or bo'lar”, “Odamni nomus o'ldirar, quyonni – qamish”, “Ori bo'lmagan yigitdan nomusli qiz yaxshi”, “Molingga suyanma, oringga suyan”, “Qatorda

nori borning ori bor”, “Yigitning xuni – yuz yilqi, Or - nomusi – ming yilqi”, “Er yigitga ikki nomus – bir o’lim”, “Orsiz turmushdan orli o’lim yaxshi”, “Yigitning moli bo’lguncha, ori bo’lsin”, “Eman daraxtining egilgani – singani, Er yigitning uyalgani – o’lgani” [4].

Mazkur maqolning lingvokulturema sifatida shakllanishida haqiqatan ham me’yoridan ortiq ortilgan yuk tuyani azoblashi, uni hayotidan ham ayirishi mumkinligi, mard inson uchun or-nomusning toptalishi - jamiyatda bosh ko’tara olmaslik o’limdan ham qattiqligi, madaniyatimizda er yigitning mavqeyi or-nomus tarozisida o’lchanishi, azaldan tuya jonivorining qadrlanishi va etalon sifatida er yigit timsoliga parallel qo’yilishi asos bo’lgan.

Lingvokulturologiya – inson hayotida muhim bo’lgan an’ana va qadriyatlarni, milliy o’ziga xoslikni o’rganadigan hamda uni til bilan mushtaraklikda tadqiq etuvchi fan. Yuqorida tahlil qilingan maqolda ham qadriyat darajasiga ko’tarilgan or-nomus “tuya” zoonimi orqali berilgan. O’zbek mintallitetiga xos, insoniy fazilat darajasiga ko’tarilgan tushunchaning xalq tomonidan maqol sifatida qayd etilishi va avlodlarga yetkazish ehtiyoji ko’zga tashlanadi. Ajdodlarimizning ma’naviy va ruhiy komilligi namoyon bo’ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Imom AL Buxoriy. Al jomi as - sahih. 2-qism. T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. 432-b.
2. Маслова В. Лингвокультурология: Учебное пособие. М.: Academia, 2001. 208 с.
3. Schmidt-Nielsen B., Schmidt-Nielsen K. The camel, facts and fables // UNESCO Courier. — 1955. — № 8—9. — С. 29.
4. O’zbek xalq maqollari. Toshkent: Gafur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. -127 b.
5. Xolmonova Z, Tosheva D. Zoonim komponentli paremalarning izohli lug’ati.T.:”Turon zamin ziyo”-2016, -359b.
6. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Т.: Ўзбек совет энциклопедияси, 1990. 524 б.
7. Дорогайкина Е.М. Языковая репрезентация зоонимов в художественном тексте: диахронический аспект. Дисс .... канд. филол. Наук:10.02.05. Красноярск, 2020. – 256 с.
8. Sharipova M.J. Chorva nomlari asosida shakllangan o’zbek xalq maqollarining lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari. Fil.fan.nom.disser. –B. 25.
9. [https://lingua.amursu.ru/upload/lingua/2019/3/thal\\_2019\\_3\\_04\\_053\\_066.pdf](https://lingua.amursu.ru/upload/lingua/2019/3/thal_2019_3_04_053_066.pdf)